

O'zbekiston Prezidenti Rossiya bilan parlamentlararo hamkorlik samarali kechayotganini ta'kidladi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-aprel kuni Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Federatsiya Kengashi Raisi Valentina Matviyenko bilan o'tkazgan telefon orqali muloqotda faol parlamentlararo almashinuvlarni davom ettirish va oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirishda ishtirok etishning ahamiyati qayd etildi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Valentina Matviyenkoni tavallud kuni bilan samimiy qutlab, unga mustahkam sog'lik va baxt-saodat tiladi.

Ikki mamlakat parlamentlari o'rtasidagi, shu jumladan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi sermahsul hamkorlik jadallashib borayotgani, O'zbekiston-Rossiya do'stlik va keng ko'lamlil strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qilayotgani mamnuniyat bilan ta'kidlandi.

Manba